



THE RELATIONSHIP BETWEEN CIVIL SOCIETY AND STATE GOVERNANCE: THE NEED FOR AN INTEGRATED CONTROL SYSTEM

Bekzod Jomonqulov

3rd-year PhD candidate at Gulistan State University
Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: civil society, state control, public oversight, integrated oversight system, transparency, accountability, international experience, democratic governance.

Received: 02.09.25

Accepted: 03.09.25

Published: 04.09.25

Abstract: Civil society institutions and state oversight are two main pillars of the oversight system in democratic governance. This article examines the necessity of integrating public (civil society) oversight with state control from theoretical and practical perspectives. The study reviews the legal foundations of public oversight in Uzbekistan, the significance of state-society cooperation, and international experience. The findings indicate that the harmonious collaboration of state oversight and public control over government activities is a crucial factor in ensuring transparency, accountability, and effectiveness in governance.

FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLAT BOSHQARUVINING O'ZARO ALOQASI: INTEGRATSIYALASHGAN NAZORAT TIZIMIGA EHTIYOJ

Bekzod Jomonqulov

Guliston davlat universiteti III bosqich tayanch doktoranti
Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, davlat nazorati, jamoatchilik nazorati, integratsiyalashgan nazorat tizimi, oshkoralik, hisobdorlik, xalqaro tajriba, demokratik boshqaruv.

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyati institutlari va davlat nazorati demokratik boshqaruvda nazorat tizimining ikki asosiy ustuni hisoblanadi. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va davlat nazoratining o'zaro integratsiyalashuvi zarurati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston misolida jamoatchilik nazoratini tartibga soluvchi huquqiy asoslar, davlat va jamiyat hamkorligining ahamiyati hamda xorijiy tajriba o'rganildi. Natijalar

shuni ko'rsatadiki, davlat hokimiyati ustidan davlat va jamoatchilik nazoratining uyg'unlashuvi oshkoralik, hisobdorlik va samaradorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО И ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УПРАВЛЕНИЕМ: НЕОБХОДИМОСТЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ КОНТРОЛ

Бекзод Джомонкулов

*Аспирант III курса Гулистанского государственного университета
Гулистан, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гражданское общество, государственный контроль, общественный надзор, интегрированная система контроля, гласность, подотчетность, международный опыт, демократическое управление.	Аннотация: Институты гражданского общества и государственный контроль являются двумя основными опорами системы надзора в демократическом управлении. В данной статье анализируется необходимость интеграции общественного и государственного контроля с научно-теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования на примере Узбекистана изучены правовые основы общественного контроля, значение сотрудничества между государством и обществом, а также зарубежный опыт. Результаты показывают, что гармоничное взаимодействие государственного контроля и общественного надзора над деятельностью власти является важным фактором обеспечения открытости, подотчетности и эффективности управления.
--	---

Kirish. Jamiyat va davlat boshqaruvida nazorat tizimi alohida o'rin tutadi. Nazorat – bu boshqaruv faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uning yordamida qabul qilingan qarorlar ijrosi ta'minlanadi, intizom va qonuniylik ustidan doimiy kuzatuv olib boriladi. Nazariy manbalarda ta'kidlanishicha, hech bir jamiyat huquqiy nazorat mexanizmlaridan tashqarida samarali rivojlana olmaydi – nazorat jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy vositalardan biridir [1, b. 23-25]. Demokratik huquqiy davlatda nazorat tizimi keng ko'lamli bo'lib, turli darajadagi vositalarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, nazoratning ikki asosiy ko'rinishi mavjud: davlat nazorati va jamoatchilik nazorati. Davlat nazorati vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan rasmiy tekshiruv faoliyatini anglatrsa, jamoatchilik (fuqarolik) nazorati bevosita fuqarolar va ularning birlashmalari orqali jamiyat hayotida olib boriladigan mustaqil nazoratni

bildiradi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, samarali boshqaruvga erishishda aynan davlat nazorati bilan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining uyg'unligi zarurdir [2, b. 15-17; 3, b. 22].

Fuqarolik jamiyati va davlat nazorati tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi hodisalar bo'lib, nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridir. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat hokimiyati ustidan "tashqi" nazoratni amalga oshirsa, davlat idoralarining o'z ichki nazorat organlari "ichki" nazoratni ta'minlaydi. Shu bois, jamiyat hayotini nazorat qilishning mexanizmi ikki mustahkam ustunga tayanadi: birinchisi – davlat hokimiyatining nazorat funksiyalari, ikkinchisi – fuqarolarning jamoatchilik nazorati huquqi. Bu ikki ustun birgalikda jamiyatda qonuniylik, oshkoralik va hisobdorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimiga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etishga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, birinchi Prezident I.A. Karimov ilgari surgan "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" tamoyili asosida jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Shu davrdan e'tiboran fuqarolarning birlashmalari erkinligi konstitutsiyaviy ravishda kafolatlanib (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda) [4, b. 112], nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) va mustaqil ommaviy axborot vositalari kabi fuqarolik jamiyati institutlari shakllana boshladi. Fuqarolik jamiyati tuzilmalari jamiyatda muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi: fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifoda etish va, eng muhimi, davlat hokimiyati faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali boshqaruv jarayonlarini ochiq-oshkora va samarali bo'lishiga ko'maklashadi [5, b. 45-47].

Nazorat tizimining yana bir ustuni bo'lgan davlat nazorati – davlatning vakolatli organlari tomonidan jamiyatda qonuniylik va tartib-intizomga rioya etilishini muntazam kuzatish va baholashga qaratilgan rasmiy faoliyat sifatida tushuniladi. Ilmiy manbalarda davlat nazorati davlat boshqaruvi jarayonining muhim unsuri ekani alohida qayd etilib, uni boshqaruv qarorlarining ijrosi ustidan nazorat qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish vositasi sifatida tavsiflashadi [6, c. 94-96]. Shu mazmunda, rus olimi A.B. Vengerov ham davlat hokimiyatini amalga oshirishda nazorat funksiyasi alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi [7, c. 120]. Demak, davlat nazoratisiz hokimiyatning samarali faoliyat yuritishi va jamiyat oldida hisobdorligi ta'minlanishi qiyin. Biroq faqat davlat tuzilmalari doirasida amalga oshiriladigan nazorat bilan cheklanish yetarli emas – keng jamoatchilik ishtirokisiz nazorat ko'lami va ta'siri cheklanib qoladi. Shu sababli demokratik boshqaruvda jamoatchilik nazorati davlat nazoratining muhim va zaruriy qo'shimchasi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolaning maqsadi – fuqarolik jamiyati institutsionalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati va davlat nazorati o'rtasidagi integratsiyalashgan

nazorat tizimini shakllantirish zaruratini yoritishdir. Maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar, davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligi tajribasi hamda demokratik davlatlarda qo'llanilayotgan ilg'or nazorat vositalari tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqotda huquqiy-normativ manbalarni tahlil qilish, qiyosiy va tizimli yondashuv hamda ilmiy adabiyotlar sharhi kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun kabi normativ hujjatlar matni tahlil qilinib, fuqarolar ishtirokini ta'minlashga qaratilgan moddalar o'rganildi. Shuningdek, davlat nazorati va fuqarolik jamiyati masalalariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlari ham ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan demokratik davlatlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha tajriba o'rganilib, u O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi. Ushbu yondashuvlar orqali davlat va jamiyat nazoratining integratsiyalashgan tizimini shakllantirishga doir xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Nazorat tizimining integratsiyalashuvi zarurati. Olib borilgan tahlillar davlat hokimiyati ustidan nazoratning eng samarali shakli davlat nazorati va fuqarolik jamiyati nazoratining uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi ekanini tasdiqladi. Ya'ni, nazorat tizimi ikki yo'nalishning integratsiyasiga asoslangandagina boshqaruvda muvozanat va samaradorlikka erishiladi. O'zbekistonda oxirgi yillarda aynan shu prinsipga amal qilinmoqda: davlat organlari ichki idoraviy va tizim ichidagi nazoratni kuchaytirish bilan birga fuqarolar va nodavlat tuzilmalar ishtirokini kengaytirishga intilmoqda. Akademik izlanishlarda qayd etilishicha, davlat va jamoatchilik nazoratining birgalikdagi mexanizmi hokimiyatning suiiste'mollariga yo'l qo'ymaslikda eng optimal natija beradi [8, b. 28-30]. Xususan, O. Xusanov aynan integratsiyalashgan nazorat tizimi davlat hokimiyati ustidan keng qamrovli va samarali nazoratni ta'minlashini ta'kidlaydi [9, b. 77]. Shuningdek, tadqiqotchi U. Norqobilov demokratik jamiyatda davlat nazoratini jamoatchilik nazoratisiz amalga oshirib bo'lmashligini, ularning birga olib borilishi zarurligini alohida uqtirgan [10, b. 34]. Demak, ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham fuqarolik jamiyati ishtirokisiz nazorat tizimi sust bo'lishi tasdiqlanmoqda.

Fuqarolik jamiyatining nazoratdagi o'рни: O'zbekiston tajribasi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining yaratilishi nazorat tizimini takomillashtirish borasidagi muhim natijalardan biridir. Konstitutsiyada fuqarolarga birlashmalar tuzish huquqi kafolatlangani va bu norma jamiyatda fuqarolik nazoratini amalga oshirishning asosini tashkil etishi belgilab qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda) [4, b. 112]. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi 1999 yilgi Qonun bilan NNTlar faoliyatining huquqiy asosi yaratilgan bo'lsa, 2018 yilda maxsus "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolar va jamoat birlashmalarining davlat ishlarini

nazorat qilish huquqini amaliyotga joriy etdi [3, b. 2-4]. Ushbu qonun doirasida davlat idoralari huzurida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish, fuqarolar tomonidan jamoatchilik eshituvlari va ekspertizalari o'tkazish kabi jamoatchilik nazoratining aniq huquqiy shakllari joriy qilindi. Natijada, fuqarolik jamiyati vakillarining davlat boshqaruvi ustidan nazoratdagi ishtiroki institutsional jihatdan mustahkamlandi. So'nggi yillarda bu borada qo'lga kiritilgan ijobiy natijalardan biri – davlat organlari faoliyatining ochiqqligi oshib, xalq bilan muloqotning yangi mexanizmlari yo'lga qo'yilganidir. Jumladan, Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan bosh tamoyil asosida O'zbekistonda Xalq qabulxonalari instituti joriy etildi. Aholining turli darajadagi hokimiyat idoralariga murojaat qilish va ularning javob olishini tizimli yo'lga qo'ygan ushbu mexanizm natijasida mansabdor shaxslarning fuqarolar oldidagi hisobdorligi kuchaydi. Nazorat jarayonlariga fuqarolarni jalb etish bo'yicha boshqa qator tashabbuslar ham amalga oshirilib, davlat va jamiyat o'rtasida muloqotning samarali platformalari yaratilgan.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati instituti jamiyat hayotining turli jabhalarida nazorat vazifasini bajarib, sezilarli natijalar ko'rsatmoqda. Masalan, korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyat yuritib, manfaatlar to'qnashuvi va suiiste'mollik holatlarini bartaraf etishda fuqarolar nazorati kuchaymoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilishdan oldin ularni muhokama uchun jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi – bu orqali fuqarolar qonun ijodkorligida ham bilvosita nazorat funksiyasini bajarishyapti. Shuningdek, mustaqil ommaviy axborot vositalari ham "to'rtinchi hokimiyat" sifatida chiqish qilib, davlat organlari faoliyatini tanqidiy yoritmoqda va jamoatchilik fikrini shakllantirmoqda. Natijada, O'zbekistonda oshkoralik tamoyili boshqaruv amaliyotining ajralmas qismiga aylanishga intilmoqda. Davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobotliligi ortgani sababli fuqarolik jamiyatining nazorat funktsiyasi samarali amalga oshayotganini ayrim ko'rsatkichlar tasdiqlaydi. Xususan, Transparency International xalqaro tashkilotining 2020 yilgi hisobotida fuqarolik jamiyati va mustaqil OAV faol ishtirokiga ega mamlakatlarda korrupsiya darajasi ancha pastligi qayd etilgan [11, p. 2]. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda ham davlat tuzilmalarida jamoatchilik nazorati kuchaygani sari ijobiy tomonga o'zgarishi kuzatilmoqda.

Xalqaro tajribadan olingan saboqlar. Tadqiqot doirasida demokratik rivojlangan davlatlarning davlat va jamiyat nazorati borasidagi tajribasi o'rganildi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlat hokimiyati ustidan parlament nazorati, ombudsman instituti, mustaqil audit idoralari orqali nazorat hamda fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etgan holda ishlovchi kengashlar samarali nazorat tizimini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, amerikalik olim Robert Putnam Italiya viloyatlari misolida fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, mahalliy hokimiyat ishlarining samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'lishini ko'rsatib bergan

[12, p. 86]. BMT Taraqqiyot Dasturining inson taraqqiyoti hisobotlarida ham yaxshi boshqaruv tamoyillarini ro'yobga chiqarishda fuqarolar ishtiroki va hokimiyatning hisobdorligi muhim omillar ekani ta'kidlanadi. Qator xorijiy mamlakatlar tajribasida ombudsman (fuqarolar huquqlari bo'yicha vakil), mustaqil Hisob palatalari, jamoatchilik eshituvlari kabi institutlar jamoatchilik nazoratining samarali vositalari sifatida qo'llanilib kelmoqda [13, p. 44]. Xususan, Skandinaviya davlatlarida ombudsman instituti fuqarolar murojaatlari va shikoyatlari orqali davlat idoralarini muntazam nazorat qilib, ularning qonuniy va odil faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar va BMT hujjatlarida parlament va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash demokratiyani kuchaytirishi alohida e'tirof etilgan [14, p. 5-7]. Aynan xorij tajribasini chuqur o'rganish va mahalliy sharoitga mos ravishda qo'llash orqali nazorat tizimini takomillashtirish mumkin.

Yaqin qo'shni mamlakatlar tajribasi ham davlat va fuqarolik jamiyati integratsiyasining dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, Qozog'istonda N. Nazarboyev XXI asrga kelib jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida fuqarolik jamiyati tamoyillarini ilgari surgan bo'lsa, Ozarbayjonda H. Aliyev davlat qurilishi islohotlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni mustahkam davlatning muhim sharti deb atagan. Qirg'iziston tajribasida ham sobiq prezident A. Akayev fuqarolik jamiyati rivojini barqaror ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot garovi sifatida e'tirof etgan. Demak, global va mintaqaviy darajada jamiyat hayotida fuqarolar faolligini oshirish va davlat nazoratini ular ishtiroki bilan integratsiyalash nurli istiqbol sifatida ko'rilmoqda.

Muhokama. Integratsiyalashgan nazorat tizimining afzalliklari. Yuqoridagi natijalar tahlili fuqarolik jamiyati ishtiroki bilan boyitilgan nazorat tizimi demokratik boshqaruvning tamal tamoyili ekanini tasdiqlaydi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi nazorat munosabatlarining uyg'unlashuvi bir qator amaliy afzalliklarni keltirib chiqaradi. Avvalo, bunday ikki tomonlama nazorat mexanizmi tufayli davlat organlari faoliyati ustidan doimiy va xolis monitoring o'rnatiladi. Davlat idoralari o'zini o'zi nazorat qilish (ichki audit, idoraviy nazorat) bilangina cheklanib qolmay, mustaqil jamoatchilik tekshiruvlariga ham ochiq bo'ladi – natijada ularning faoliyati ustidan ko'z-qarachilik kuchayadi. Bu esa boshqaruv jarayonlarida oshkoralik va halollikni ta'minlab, mansabdor shaxslarning suiiste'mollik qilish ehtimolini kamaytiradi. Masalan, Transparency International ma'lumotlari ham fuqarolik jamiyati faol bo'lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi pasayishini ko'rsatadi [11, p. 2]. Shuningdek, mustaqil OAV va jamoatchilik fikri instituti rivojlangan jamiyatlarda davlat organlari xalq oldida hisobdor bo'lishiga erishiladi. Ayni paytda bunday integratsiyalashgan tizim fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, chunki fuqarolar o'zlari ham boshqaruvning ajralmas qismi sifatida nazorat funksiyasini bajarayotganini ko'radilar. Natijada, jamiyatda ijtimoiy hamkorlik muhitini shakllantirish imkoniyati ortadi – davlat va fuqarolar bir jamoa sifatida umumiy maqsadlar yo'lida

ishlaydi. Bu holatni nazariy jihatdan O'zbekistonlik olim A. Saidov ham alohida ta'kidlagan: fuqarolik jamiyati institutlari faolligi demokratik islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hal qiluvchi omildir [15, b. 7-9]. Xuddi shunday, boshqa tadqiqotchilar ham fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, hokimiyatning xalq oldidagi hisobdorligi va qonun ustuvorligi shunchalik kuchli bo'lishini ilmiy asoslaganlar [16, b. 88-90].

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari. Davlat nazorati va jamoatchilik nazoratini integratsiyalash jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Birinchidan, jamoatchilik nazorati samaradorligi ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy savodxonligi va faolligiga bog'liq. Fuqarolar huquq va majburiyatlarini yaxshi bilmasa yoki fuqarolik pozitsiyasi sust bo'lsa, ular nazorat jarayonlarida ishtirok etishdan chetda qolishi mumkin. Sh. Kenjayevning ta'kidlashicha, fuqarolik jamiyatining to'laqonli shakllanishi fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga bevosita bog'liqdir [17, b. 53]. Shu bois jamiyatda huquqiy bilimlarni oshirish, aholining huquqiy ongini yuksaltirish integratsiyalashgan nazorat tizimini mustahkamlashning muhim shartidir. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik bazasi va mustaqilligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'z faoliyatini samarali yuritishi uchun yetarli moliyaviy manbalarga ega bo'lishi zarur. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, NNTlarning moliyaviy mustaqilligi sust bo'lsa, ularning jamiyat manfaatlarini himoya qilishdagi roli ham cheklanishi mumkin [18, b. 21-23]. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan NNTlarga grantlar, ijtimoiy buyurtmalar va soliq imtiyozlari ajratish orqali ularni qo'llab-quvvatlash lozim. So'nggi yillarda O'zbekistonda bu borada qadamlar tashlangan – 2018 yilda Oliy Majlis tomonidan NNTlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid qaror qabul qilingan va nodavlat sektorni rag'batlantirish mexanizmlari belgilangan.

Uchinchidan, jamoatchilik nazorati natijalarini amaliyotga tatbiq etish masalasida ham yechimini kutayotgan muammolar bor. Ya'ni, fuqarolar yoki jamoat tuzilmalari tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalarni davlat organlari tomonidan inobatga olish darajasi hanuz to'liq qoniqarli emas. I. Qurbonov jamoatchilik nazoratining huquqiy natijalari masalasini o'rganar ekan, ko'plab hollarda jamoatchilik ekspertizasi yoki takliflari ijro hokimiyati uchun majburiy kuchga ega emasligini ta'kidlaydi [19, b. 17]. Bu esa jamoatchilik nazorati xulosalari bajarilmasdan qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur: xususan, jamoatchilik nazorati tartibida fuqarolar va NNTlarning takliflarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha davlat organlari hisobot berishi shartligini belgilash maqsadga muvofiqdir. Boshqa bir muhim masala – jamoatchilik nazorati subyektlarining vakolat va mas'uliyatlarini aniqlashtirishdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi deputatlar, jamoatchilik kengashlari a'zolari, fuqarolar yig'inlari vakillari kabi subyektlarning huquqiy maqomi aniq belgilansa, ularning faoliyati samaradorligi

oshadi. Ayrim tadqiqotchilar jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi institutlarning vakolatlarini qonunlarda aniq ko'rsatish lozimligini ta'kidlashadi [20, b. 29]. Bu borada "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun ijrosini ta'minlash hamda unga amaliy hayotda duch kelayotgan muammolar asosida o'zgartish va qo'shimchalar kiritish ishlari izchil davom ettirilishi kerak.

Davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish istiqbollari. O'zbekiston hozirgi bosqichda davlat nazorati va jamoatchilik nazoratini integratsiyalash borasidagi siyosatini izchil davom ettirmoqda. 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida davlat organlari faoliyati ochiqqligini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [21, b. 8]. Yaqin istiqbol uchun qabul qilinishi rejalashtirilayotgan 2030-yilgacha Taraqqiyot strategiyasi loyihasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu kelgusida nazorat tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini yanada oshirishga xizmat qiladigan muhim yo'nalishdir. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro nazorat mexanizmlarini mustahkamlash demokratik islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu bois O'zbekiston xorijiy ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirishga intilmoqda. Xususan, parlament nazoratining samarali usullari, ombudsman instituti faoliyati, fuqarolik jamiyati vakillarini qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish kabi amaliyotlar xalqaro maydonda o'z samarasini bergan. Ularni milliy boshqaruv tizimiga implementatsiya qilish O'zbekistonda davlat nazorati va fuqarolik jamiyati integratsiyasini yanada kuchaytirishi kutilmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar va muhokamalardan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati va davlat nazorati nazorat tizimining bir butun integratsiyalashgan tarkibiy qismlari ekani o'z isbotini topadi. Demokratik davlat boshqaruvida ushbu ikki mexanizmning o'zaro uyg'unlashuvi eng muhim tamoyillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan davlat organlarining ichki nazorat tizimi bilan fuqarolarning mustaqil jamoatchilik nazorati samarali hamkorlik qilgan taqdirdagina, davlat hokimiyati faoliyati ustidan to'laqonli nazorat o'rnatiladi. Bu esa o'z navbatida, boshqaruv jarayonlarining oshkoraligi va adolatlilikini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi. O'zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va davlat nazorati samaradorligini oshirish masalalari doimiy e'tiborda bo'lib, so'nggi yillardagi islohotlar natijasida jamiyat boshqaruvida jamoatchilik ishtiroki sezilarli ravishda ortdi. Biroq erishilgan natijalarga qaramay, jamoatchilik nazorati infratuzilmasini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va nazorat organlarining chinakam mustaqilligi va hisobdorligini

ta'minlash borasida ishlar davom ettirilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, davlat va jamiyat nazoratining integratsiyalashgan tizimini kuchaytirish nafaqat mamlakat ichkarisida ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va demokratik rivojlanishni ta'minlaydi, balki O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi demokratik davlat sifatidagi nufuzini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2003. – B. 112.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'li (ma'ruza tezislari). – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 7-9.
3. O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni, 2018 yil 12 aprel. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., №15, 155-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. – B. 112.
5. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1999 yil 14 aprel. – O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari to'plami, 1999 y., №5, 113-modda.
6. Венгеров А.Б. Теория государства и права. – М.: Юристъ, 2000. – С. 93-97.
7. Gavrilov V.V. Демократическое государство и гражданский контроль. – М.: Наука, 2006. – С. 118-121.
8. Xusanov O. Jamoatchilik nazorati va davlat hokimiyati: integratsion yondashuv. – Toshkent: 2018. – B. 27-30.
9. Norqobilov U. Demokratik jamiyatda davlat va jamoatchilik nazorati uyg'unligi. // “Jamiyat va boshqaruv” ilmiy jurnali, 2020, №4. – B. 75-78.
10. Putnam R. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993. – P. 85-87.
11. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2020 – Global Report. – Berlin, 2020. – P. 2.
12. Komilov A. Xorijiy mamlakatlarda ombudsman va audit idoralari faoliyati. // “Huquq va burch” jurnali, 2021, №2. – B. 42-45.
13. Islomova S. Jamoatchilik nazorati: xorij tajribasi va saboqlar. – Toshkent, 2020. – B. 43-46.
14. United Nations General Assembly Resolution 66/163 “Enhancing the role of regional, subregional and other organizations in promoting democracy and human rights”, 2011. – P. 5-7.
15. Saidov A. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat: integratsion tadqiqot. – Toshkent: Adolat, 2010. – B. 6-8.
16. Niyozov Q. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: 2011. – B. 87-90.

17. Kenjayev Sh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida huquqiy ongning oʻrni. // “Adolat” ilmiy toʻplami, 2019, №1. – B. 50-54.
18. Qodirov B. Jamoatchilik nazorati: hududiy darajadagi muammolar. – Toshkent: 2018. – B. 20-23.
19. Qurbonov I. Jamoatchilik nazorati natijalarining huquqiy maqomi. // “Yuridik fanlar axborotnomasi”, 2021, №3. – B. 15-18.
20. Usmonov T. Jamoatchilik nazoratining huquqiy kafolatlari. – Toshkent: 2017. – B. 28-30.
21. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021 yillarga moʻljallangan Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni, 2017 yil 7 fevral, PF–4947. – B. 8.